QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)

FILOLOGIYA

PHILOLOGY

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDAGI PEYZAJ MATNLARINING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

Shamsiyeva Manzura Bababekovna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dots. v.b.,
f.f.f.d. (PhD)
97 754 96 69 // vasiya06@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi ayrim peyzaj matnlarida rang bilan bog‘liq o‘rinlarining idrok jarayonlari U. Naysserning “Perseptiv sikl” modeli asosida tahlil qilingan. Muallif idrokidagi ranglar shaxs hissiyotlarini ifodalovchi asosiy kognitsiyalar sifatida qo‘llangan. Tadqiqotning maqsadi peyzaj birliklarini yaratishda til sohibi bo‘lmish asar muallifi va retsipiyentning lingvokognitiv xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot obyekti Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida qo‘llangan rang bilan bog‘liq peyzaj matnlarini tashkil etadi.

Tabiatning badiiy tavsifini yaratayotib, muallif retsipiyentni o‘z qadriyatlari, estetik va axloqiy ustuvorliklari olami bilan tanishtirishga intiladi. Agar retsipiyentda matnni o‘qish jarayonida emotsional hamdardlik, mansublik, kuyunish hislari paydo bo‘lsa, ya’ni regulyativ, kognitiv va emotsional-irodaviy jihatlari ishtirok etsa, metodologik va badiiy vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan til vositalarini tanlash va birlashtirish yordamida amalga oshadigan muallifning kognitiv-emotiv maqsadlari va ustanovkasini amalga oshgan, deb hisoblash mumkin. Alisher Navoiy idrokida turli turli ranglarning o‘ziga xos assotsiatsiya hamda kognitsiyalari aniqlandi.

Kalit so‘zlar: yashil rang, sabza rang, qizil, qora, “Perseptiv sikl” modeli, peyzaj matni, kognitsiya.

ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ ПЕЙЗАЖНЫХ ТЕКСТОВ ЭПОСА АЛИШЕРА НАВОИ “САДДИ ИСКАНДАРИ”

Аннотация. В статье рассматриваются процессы восприятия роли цвета в некоторых пейзажных текстах эпоса Алишера Наваи “Садди Искандари”. Это было проанализировано на основе модели “Перцептивного цикла” У.Найссера. Цвета в восприятии автора использовались как базовые когнитивные средства, выражающие чувства индивида. Цель исследования – проанализировать лингвокогнитивные свойства автора произведения и реципиента, который является обладателем языка при создании

пейзажных единиц. Объектом исследования являются пейзажные тексты, связанные с цветом, которые применены в эпосе Алишера Навои “Садди Искандари”.

Создавая художественное описание природы, автор стремится ввести реципиента в мир своих ценностей, эстетических и нравственных приоритетов. Можно считать, что когнитивно-эмоциональные цели и мастерство автора, которые реализуются с помощью подбора и сочетания языковых средств, необходимых для реализации методологических и художественных задач, достигнуты, если в процессе чтения текста у оппонента возникают ощущения эмоциональной эмпатии, сопричастности, оцепенения, то есть при задействованы регулятивные, когнитивные и эмоционально-волевые аспекты. В восприятии Алишера Навои были выявлены специфические ассоциации и познания различных цветов.

Ключевые слова: зеленый цвет, цвет сабза, красный, черный, модель “перспективного цикла”, пейзажный текст, когниция.

LINGUOCOGNITIVE ANALYSIS OF LANDSCAPE TEXTS OF ALISHER NAVOI’S EPIC “SADDI ISKANDARY”

Annotation. The article analyzed the perceptual processes of the color-related positions of Alisher Nawai in some landscape texts in the epic “Saddi Iskandari” on the basis of U.Naisser’s “Perceptual cycle” model. The colors in the author’s perception have been applied as basic cognitions that express personality emotions. The purpose of the study is to analyze the linguocognitive properties of the author of the work and the recipient, who became the owner of the language in the creation of landscape units. The object of the Study constitutes landscape texts related to color, as used in Alisher Nawai’s epic “Saddi Iskandari”.

The study used methods of content analysis, cognitive modeling, characterization and U.Naisser’s “Perceptual cycle” model.

While creating an artistic description of nature, the author seeks to introduce the recipient to the world of his values, aesthetic and moral priorities. If in the process of reading a text in the receipt emotional empathy, feelings of belonging, attachment appear, that is, the regulatory, cognitive and emotional-volitional aspects are involved, it can be considered that the author's cognitive-emotional goals and ingenuity, which are realized using the selection and combination of language tools necessary for the implementation of methodological and artistic tasks, are realized.

Keywords: green, sabza color, red, black, “Perspective cycle” model, landscape text, cognition.

Kirish. Badiiy asarlarda tabiat tavsifi har doim muallifning shaxsiyati, uning tasavvurlari va kechinmalari o‘rin olgan olamning lisoniy manzarasi, til ongida shakllangan ma’no va qadriyatlar ierarxiyasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Muallif mavjudligining ta’siri yozuvchi, shoirning

dunyoqarashiga muvofiq til vositalarini tanlashi, ularning o‘ziga xos tartiblanishida namoyon bo‘ladi. Shaxs lisoniyatining intensiyalari va amalga oshirilish aspektlari, uni tashkil etish, nutq subyektini aktuallashtirish (personifikatsiya qilish) asarda antropotsentrizm va subyekt-markazlashuv belgilarini aniqlash orqali o‘rnatilishi mumkin: bunda ma’lum til/nutqni tahlil qilishda shaxs lisoniyati, shuningdek, eksplitsit va implitsit mualliflik modalligi orqali aniq ifodalanadigan matnning semantik realiyalari o‘ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo‘ladi. Muallifning subyektivligi tabiatni tavsiflashda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkinligi, masalan, turli so‘z ustalari bir xil tabiat hodisasini nafaqat turli nuqtayi nazardan, balki shunga mos ravishda turli xil modallik, baholash, konnotativlik bilan tasvirlashi bilan tasdiqlanadi.

Badiiy matnda muallifning ongida shakllangan kognitiv jarayonlar, axloqiy-qadriyatli va estetik tasavvurlar obyektivlashtiriladi, ular retsipiyent refleksiyasini uyg‘otish, matnni tushunish va talqin qilish, shuningdek, o‘z nuqtayi nazarini, olam haqidagi tasavvurlari, faktlar, voqealar, munosabatlar haqidagi g‘oyalarni shakllantirish uchun ijodiy qayta ko‘rib chiqishga mo‘ljallangan. Estetik ma’no, estetik hodisa va axloqiy harakatni yaratish matn muallifidan ham, adresatdan ham muayyan intellektual harakatlarni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ratsionallik va hissiylikning uyg‘un kombinatsiyasi, tabiat tasvirini hissiyotlar bilan uyg‘unlashtirish M.Y. Lermontov, F.M. Dostoyevskiy, M.M. Prishvin, I.A. Bunin, A.P. Chexov, E.A. Po kabi yozuvchilarning asarlarida uchraydigan tabiat tavsiflariga juda xosdir.

Agar uzual lug‘atning tarkibiy qismlari soni badiiy asar muallifi uchun yetarli bo‘lmasa, u holda so‘zlarni ishlatish darajasi kuchga kiradi, bu yerda og‘zaki so‘z muqarrar ravishda sintaktik xarakterga ega bo‘ladi va odatda odatiy uyg‘unlikning buzilishi bilan bog‘liq semantik kutilmaganlik bilan tavsiflanadi. Bunday matnlarni tushunishda retsipiyent matn muallifining mentaliteti, aql-zakovati, lingvistik qobiliyatlari bilan bog‘liq turli xil jarayonlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jihatdan V. Xlebnikov, A. Voznesenskiy she’rlaridagi tabiat tavsiflari xarakterlidir.

Matn tuzish va uni idrok etish jarayonida ko‘pincha muallif – “subyekt-faoliyat olib boruvchi” va retsipiyentda bo‘rttirish kuzatiladi. Muallif, uning qahramonlari, retsipiyent o‘rtasidagi ochiq yoki eksplitsit dialoglarda unda ishtirok etuvchilarning lisoniyati va emotsiyalari aks etadi. Tovushlar, morfemalar, leksika, grammatik vositalar, obrazli vositalar (metaforalar, qiyoslashlar, rang uzatish va h.), emotsional-bo‘yoqdor sintaktik qurilmalar muallif lisoniy ongini obyektivlashtirishning verbal vositalariga kiradi. Hatto yozuvchi yig‘iq sintaktik qurilmalar, sodda nominativ gaplardan foydalanishga harakat qilsa ham, muayyan mualliflik maqsadi namoyon bo‘ladi – bunda tabiat tavsifi ratsional, faktik ma’lumotni uzatishni nazarda tutadi, bilish funksiyasi amalga oshadi. Agar muallif etik-estetik maqsadni ko‘zlasa, unda ko‘proq tavsiflarni qo‘llaydi, sintaktik ritm uzuq-yuluq emas, balki ravon bo‘ladi.

Peyzaj tavsifi badiiy vosita sifatida tezda tasdiqlanmagan. Dastlab unga faqat kichik dekorativ rol ajratilgan, ya’ni uning vazifasi kitobxonlarni voqea qachon va qayerda sodir bo‘layotganidan xabar berishdan iborat bo‘lgan. Ba’zi yozuvchilar peyzajga qisqacha to‘xtalish

bilan cheklanishgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan adabiyotda tabiat konsepsiyasi va uni tasvirlash prinsiplari domiy ravishda o‘zgarishda bo‘ldi. Peyzaj boshqa badiiy vositalar bilan tenglashib bordi, tabiat obrazlarining g‘oyaviy-estetik funksiyasi, ularning kompozitsion roli, ichki strukturasi, asar janri va uslubiga ta’sir etish xarakteri, prinsiplari rivojlandi. Asarda peyzaj tasviri mavjud yoki mavjud emasligi endi sezilmasdan qolmadi.

Zamonaviy adabiyotda peyzaj – asar strukturasining muhim komponentiga aylandi. U shakliy-mazmuniy kategoriya bo‘lib, matnning makon-zamon, g‘oyaviy-tematik darajasini shakllantirishga xizmat qiladi, uslubiy-mazmuniy polifunksionalligi bilan farqlanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da peyzajga quyidagi ta’rif berilgan: “Peyzaj [fr. paysage < pays – joy, makon] 1 Biror joyning ko‘zga tashlanib turgan umumiy ko‘rinishi; manzara. O‘rmon peyzaji. Tog‘ peyzaji. 2 Tasviriy san’atning tabiat manzaralarini tasvirlash bilan shug‘ullanadigan turi; tabiat manzarasi tasvirlangan surat. 3 Adabiy asarda manzara tasviri, tabiat manzarasi, tabiat lavhalari. *Hamid Olimjon bu she’rida O‘zbekistonning peyzajini yaratishda mohir bir san’atkor sifatida gavdalanadi. “Vatan adabiyoti*”.

Badiiy matndagi rang ifodalovchi so‘zlar leksikasi tahlilida rang ifodalashning barcha usullarini hisobga olish lozim. Filologiya nuqtayi nazaridan matn badiiy butunlik, rang esa ushbu butunlikning elementlaridan biri sifatida idrok etilishi lozim. Rang insonda muayyan hislar, obraz va assotsiatsiyalarni yuzaga keltirish xususiyatiga ega. Har qanday rang so‘z kabi o‘qilishi yoki xabar, belgi, ramz sifatida talqin qilinishi mumkin. Turli millat vakillari obyekt ranglarini turlicha idrok etadi. Odamlarning kundalik hayotidagi ba’zi ranglar va ottenkalarning ahamiyatiga qarab, ularning ba’zilari tilda ko‘proq yoki kamroq aks etishi mumkin. Masalan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi xalqlar tilida yashil rang ottenkalarini ifodalovchi so‘zlar ko‘p uchraydi, bu ekilgan ekinlarningning holatini nazorat qilish va baholash bilan bog‘liq hayotiy muhim zaruriyatdir. Insoniyat madaniyatida dastlab paydo bo‘lgan eng qadimgi ranglar oq, qora va qizil ranglar hisoblanadi Bu holatda rangni tadqiq etish barcha badiiy vositalarning tahlilini nazarda tutadi.

Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida peyzaj tavsifini adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etgan olim A. Erkinov bu haqda shunday yozadi: “Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida tabiat tasviri butun asar davomida kuzatiladi. Navoiy boshqa dostonlarida bo‘lgani kabi bu asarida ham peyzaj ustasi sifatida maydonga chiqadi. Agar biz “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” dostonlarida bir qator xarakterli peyzajlarga duch kelsak, “Saddi Iskandariy” dostonida Navoiy tabiat olamining katta bilimdoni, quruqlik olami tabiatining donishmandi, suv osti olamining g‘avvosi, asos e’tibori bilan tabiat tasviri – peyzajning beqiyos ustasi sifatida ko‘zga tashlanadi”.

Haqiqatan ham, Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida peyzajga ko‘proq o‘rin ajratilgan. Masalan, “Saddi Iskandariy” dostonida Payg‘ambar (s.a.v.)ning Me’roj tunida ko‘kka chiqish holati – sakkiz qavat osmonning har bir qavati 2 bayt bilan ifodalangan bo‘lsa, “Lison ut-tayr” dostonida 1 baytdan ifoda etilgan. Buni muallifdagi yosh bilan bog‘liq kognitsiya jarayonlariga ham bog‘lash mumkin. Muallif “Saddi Iskandariy” dostonini 44

yoshda (1485-y.) yozgan bo‘lsa, “Lison ut-tayr” dostonini 58 yoshda (1498-1499-y.) yozgan bo‘lib, psixologik jihatdan keksalik yosh davrida keng ma’noni qisqa satrlarda ifoda eta olgani bilan izohlash mumkin.

Badiiy matndagi rang ifodalovchi so‘zlar leksikasi tahlilida rang ifodalashning barcha usullarini hisobga olish lozim. Filologiya nuqtayi nazaridan matn badiiy butunlik, rang esa ushbu butunlikning elementlaridan biri sifatida idrok etilishi lozim. Bu holatda rangni tadqiq etish barcha badiiy vositalarning tahlilini nazarda tutadi. Matnda keltirilgan rang birikmalarining semantikasini, ushbu semantika rangning an’anaviy ma’nolariga muvofiqligi yoki uning muallif ijodidagi transformatsiyasini ko‘rib chiqish kerak. Ranglarni tahlil qilish yozuvchining uslubi, uning asarlari poetikasi, ijod psixologiyasining umumiy va xususiy masalalariga oydinlik kiritadi.

Tahlil va natijalar. Yashil – maysa va yaproqlar rangi. Shu bilan birga, yorqin yashil rang – hayot va ko‘karish, yosharish, kulrang-yashil ottenka – jonsizlik, o‘lim ramzidir. Yoshlik, umid va quvonch, bundan tashqari o‘zgarish, beqarorlik va rashk (rashkning ko‘zlari yashil)ni ifodalaydi. Ko‘k va sariq ranglardan tarkib topgan (Osmon va Yer) yashil rang mistik xususiyatlarga ham ega. Tenglik, umid, hayot donoligi taassurotini aks ettirish uchun ushbu rang intellektning sovuq ko‘k rangi va sariq quyoshning hissiy iliqligini o‘zida birlashtiradi. Yashil – Venera va Merkuriy rangi, sevgi ramzi bo‘lish bilan birga, u bahor, yangilanish, quvonch, ishonch, tabiat, jannat, mo‘l-ko‘llik, farovonlik, tinchlikni ham ifodalaydi. Masalan, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi peyzaj matnlarida yashil rang bilan bog‘liq quyidagi namunalarni keltirib o‘tamiz:

“Nogoh bir shiddatli chaqmoq chaqilib, butun olam nurga g‘arq bo‘ldi. U chaqmoq ham emas, yashin tezligida uchuvchi qush bo‘lib, qo‘lida ham shu turdagi chaqin qushi bor edi. Ularning biri Arshi a’lo ayvonining qushi bo‘lsa, ikkinchisi jannat bo‘stonining sayr qiluvchisidir. Unisiga yettinchi osmon qasridagi daraxt sayrash makoni bo‘lsa, bunisiga jannat bog‘i ***yashil maydondir***. Yuqorida ta’kidlanganidek, yashil bu o‘rinda jannat bog‘ining belgisi sifatida qo‘llangan.

Bu ***sabza rang****dan butun olam maysazorga o‘xshab ko‘rinar, yer yuzining rangi go‘yo butunlay* ***yashil*** *tusga kirgandek edi; Daryoning qirg‘oqlarida ko‘m-ko‘k gul daraxtlari, xuddi* ***Xizr payg‘ambardek abadiy yashil rangga*** *burkanib yotar edi”.* Sabza, yashil o‘zaro sinonimik qatorni tashkil etgan. Shu o‘rinda yashil rangning mumtoz adabiyotda Xizr payg‘ambar bilan assotsiatsiyalanishini ta’kidlash joiz. Bunga yana qator misollarni keltirish mumkin.

Abu Hurayra roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: “U “Xizr” deb nomlanganiga sabab shuki, agar oq (quruq) yerda o‘tirsa, ko‘k rangga aylanardi (o‘sha yerda o‘simlik o‘sardi, deyilmoqchi)” (Buxoriy rivoyati).

“Qisasi Rabg‘uziy”da: “Xizr ma’nisi yashil bo‘lur. Qayu tosh uza Xizr alayhissalom o‘ltursa ul tosh yasharur erdi. Aning uchun Xizr ataldi. Aymishlar: Qayu yerda o‘ltursa ul yer ko‘karur erdi”.

Alisher Navoiyning “Xamsa” asarida Xizr obrazi yashillik bilan aloqador tarzda ko‘p qo‘llangan. Xususan, “Farhod va Shirin” dostonida:

Bo‘yig‘a nazm solg‘on hulla axzar,

Dema to‘ti, degil Xizri payambar.

Ushbu baytda “Hulla axzar” – yashil to‘n ma’nosida Xizr kiyimiga ishora qilmoqda.

“Sab’ai sayyor”da ham shu mazmundagi bayt bor:

Xizr monand **sabzadin rangi**

Sabzasi suyi ko‘zgusi rangi.

Qizil – qon ham, pishgan qulupnayning ham rangi. Umuman olganda, qizil rang tajovuzkor, hayotiy, kuchga to‘lgan, olov bilan bog‘liq va sevgi tarzida belgilanadigan, hayot uchun emas, balki o‘lim uchun kurashni anglatadi. Insonlar uchun qizil rang, birinchi navbatda, qon rangidir, u uchun juda muhim va ma’lum ma’noda hayotning o‘zini anglatadi. Qizil rang va uning ottenkalari (qizg‘ish, qirmizi, qon qizil) halokatli kuchdir.

“Inoyat quyoshi vasfidakim, bu fayzli quyosh jilva qilib chiqsa, uning ta’siri toshni porloq ***yoqut****ga va* ***la’l****ni otashga aylantiradi... Hidoyat buluti ta’rifidakim, ehson havosidan ko‘tarilsa, o‘z rahmat yomg‘iri bilan tuproqni* ***lolazor****ga va* ***qip-qizil gulzor****ga aylantiradi”*. Ush bu peyzaj matnida yoqut, la’l, lolazor so‘zlari prdmetdan tashqari rang anglatishga ham xizmat qilgan. Zero, yoqut – mineral, tarkibida oz miqdorda (2% gacha) xrom ionlari (Cr3+) bo‘lgan korund (A12O3)ning **qizil rangli** turi. Rangi **och pushtidan to‘q qizilgacha**; ***La’l*** *so‘zining* leksik ma’nosi qizil rangli tosh bo‘lgani uchun g‘azallarda, ko‘pincha, **qizil rangga** ishora etiladi. Ko‘rinib turibdiki, mazkur so‘zlar ranglar gradatsiyasi uchun ham xizmat qilgan bo‘lib, manzaraning yorqin idroq etilishiga xizmat qilgan.

Ko‘k rang – kunduzgi musaffo osmon va chuqur dengiz rangi. Ushbu rang ottenkalari Alisher Navoiy peyzaj matnlarida “menusirisht/miynusirisht – ko‘kimtir, ko‘klam” so‘zlari orqali ifoda etiladi:

Farsh bo‘lub sabzai ***menusirisht***

Xayli rayohin anga huri behisht

Bundan tashqari faqat Navoiy lisoniy shaxsiyatiga xos bo‘lgan, o‘zgacha rang kogniotipini ham ta’kidlash joiz:

Muruvvat rangi-yu insof isi *ko‘z tutmag‘il eldin,*

Bu rang-u bo‘yluq gul yo‘q chu olam gulistonida. Bu o‘rinda **muruvvat** so‘zi **rang** bilan, **insof** so‘zining **is** so‘zi bilan birga qo‘llanishi muallifning kognitsiya jarayonlari cheksizligini idrok qilish va Navoiy lisoniy shaxsiyatining takrorlanmasligi, olamni o‘ziga xos idrok etishini tasdiqlaydi.

Gul qizil, sorig‘ emas gulshanda men ko‘rgan zamon,

Oq gul erdikim, necha rang o‘ldi ul yuz rashkidin.

Ya’ni, qizil, sariq gullar aslida oq gullar bo‘lgan, yor yuzini ko‘rib, rashk tufayli qizargan va sarg‘aygan. Bu o‘rinda **qizil** va **sariq** ranglar qahramonning psixologik holatini ifoda etib, “Psixologik vaziyatlilik: peyzaj-kechinma” turini hosil qilgan.

Ikkiyuzlik bo‘lmakim, bu bog‘ning ra’no guli,

Gar qizorur bir yuzi, lekin yana biri sorg‘arur.

Bu o‘rinda muallif **qizil** va **sariq** ranglar orqali “Psixologik vaziyatlilik: peyzaj-kechinma”ni ifodalaydi hamda ikkiyuzlamachilikni qoralashda ushbu ranglardan unumli foydalanadi. Ya’ni, ikkiyuzlamachilik tufayli inson uyalib qolishi va aziyat chekishi yuzning qizarishi va sarg‘ayishi kogniotiplari bilan berilgan.

Guvohi bo‘lganimizdek, qizil va sariq ranglar Alisher Navoiy peyzaj matnlarida aksar hollarda birga qo‘llangan va matnning yorqin idrok etilishiga xizmat qilgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy “kibrit – qizil yoqut, oltin”, “rummoniy – anorrang; qip-qizil, to‘q qizil” so‘zlarini ham qizil ma’nosida qo‘llaydi.

Sariq – xazonrezgilik, ayriliq, zaiflik kabi ma’nolarni ifodalash uchun qo‘llanadi.

Alisher Navoiy sariq rangni ifodalash uchun “za’faroniy” so‘zidan ham foydalanganki, aslida “za’faron – sarg‘ish tus beruvchi xushbo‘y o‘simlik” ma’nosidan “za’faroniy rang, sariq rang, sarig‘” sifati, “za’faronzor – za’faron ekilgan bog‘” oti hosil qilingan va siniqqan, ezilgan, ishqdan sarg‘aygan yuz kabi psixologik holatlarni ifodalash uchun xizmat qilgan:

*Bo‘lmayin subh **za’faroniy** chehr,*

Charx ko‘rguzmas anga hargiz mehr. (S.S.)

Ko‘rma sorig‘ barg-u qil nazzora ruxsorim sari,

*Qo‘y xazon bog‘in, guzar qil **za’faronzorim** sari. (X.M.)*

Shuningdek, sariq rangni ifodalash uchun “kohvash, kohiy, kohiyvash” so‘zlaridan ham foydalangan.

Qora – kuyik va ko‘mirning rangi. Bu jallodlar, qotillar, qaroqchilarning rangi; “qora noshukurlik” va “qora yovuzlik” iboralari yaxshi ma’lum. Masalan, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida “qora” rang bilan bog‘langan quyidagi peyzaj tasvirlari uchraydi: “Shu taxlit *qora tutun* osmoni falakni butkul qopladi, natijada dahshatli *zulmat* yuzaga keldi. Bu holatni ko‘rgan zamona uni “*shom*” deb atadi. Uni *“shom”* ham emas, *zulmat kigizi* deb, butun koinotni *zulmatga – motam libosiga* burkandi, deb aytsam yanada to‘g‘riroq bo‘lar. Bu manzara, go‘yo qazo mening gunohlarim ko‘pligi uchun o‘ldirmoqqa chog‘langanu, shundan dunyo odamlari *aza libosini* kiyganini eslatadi yoxud butun osmoni falakning ichini *qora qayg‘u* g‘amnok etganu, yoqasini subh tongi chok etgandek”. Ushbu parchada qora so‘zining muallif idrokidagi assotsiatsiyalari “*zulmat, shom, zulmat kigizi, motam libosi, aza libosi”* kabi kognitsiyalar bilan ifodalanganini ko‘rish mumkin. Matnda keltirilgan “qora tutun”, “qora qayg‘u” sifatlashlari ham qo‘llangan bo‘lib, “qora” aksar boshqa xalqlardagi singari o‘zbek mentalitetida ham negativ hislar bilan bog‘liqligini ko‘rsatib turibdi. Shu o‘rinda qora rang bilan bog‘langan birikmalar hamda muallif assotsiatsiyalari *“subh tongi”* bilan ziddiyatga kirishgan, ya’ni barcha qora rangni anglatuvchi birliklarga antonim sifatida oq rangni ifodalash uchun muallif *“subh tongi”* badiiy obrazi, tabiat elementini kiritadi. Ushbu matnda shaxs ichki kechinmalari tabiat hodisalari bilan bog‘lab tasvirlangan bo‘lib, peyzajning “Psixologik vaziyatlilik: peyzaj-kayfiyat; peyzaj-kechinma” turiga misol bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish

mumkinki, muallif idrokidagi ushbu ranglar shaxs hissiyotlarini ifodalovchi **asosiy kognitsiyalar** sifatida qo‘llangan.

Peyzajning “Psixologik vaziyatlilik: peyzaj-kayfiyat; peyzaj-kechinma” turiga yana quyidagi matnlarni ham namuna sifatida keltirish mumkin. “Ana shu talay *g‘am-g‘ussa*larga qaramay, falak mening *qora taqdir*imni *oqlik – ravshanlik* tomon burdi. Bunga ne asos bo‘lganini so‘rasang, aytay – *zulmat isyoni*ga *yorishib borayotgan tong* sabab bo‘ldi. *Oppoq tong*ni *zulmat*ni yo‘qqa chiqarayotgan *paxta* misoli bil, uning zarrin nurlarini *qaro tun* o‘ralgan kafanning rishta – tolalari deya faraz qil. *Tong shom zulmati*ga, ya’ni *ajal* guruhiga shiddatli hujum qilib, uning har toridan yo‘qlik manzili sari tortdi”. Muallif shaxs ichki kechinmalaridagi ziddiyatni qora va oq kognitsiyalari bilan ifoda etgan. Aynan qora va oq kognitsiyalarini badiiy tasvirlash uchun “*qora taqdir, ravshanlik, zulmat isyoni, yorishib borayotgan tong, oppoq tong, zulmat, qaro tun, shom zulmati, ajal”* tarzidagi ifodalardan foydalangan bo‘lib, qahramon ruhiyatidagi hislarni tabiatning kontrast holati orqali yuksak mahorat bilan bog‘lagan. Muallifning idrokida “qora” bu o‘rinda *“ajal”*, “oq” esa “o*ppoq tong”, “paxta”* kognitsiyalarini keltirib chiqargan. Kognitsiyalarning tadrijiy ravishda shakllanish jarayoni “*zulmat isyoni*ga *yorishib borayotgan tong* sabab bo‘ldi” jumlasida aniq ifodalangan. Umuman olganda, butun matn kognitsiyalarning tadrijiy rivojidan tarkib topadi, aslida. Zero J.Rumiy hazratlari ta’kidlaganidek, barcha narsalarning mohiyati bir-biriga nisbatan ziddiyatda ravshanlashadi.

Bunday tasvir retsipiyentning kognitiv mexanizmlarini rivojlantiradi, holat yorqin, ta’sirli tarzda idrok etiladi. Kognitiv rivojlanish – idrok, xotira, tushunchalarni shakllantirish, muammolarni hal qilish, tasavvur va mantiq kabi fikrlash jarayonlarining rivojlanishi. O‘z navbatida ta’kidlash joizki, retsipiyentda bunday mexanizmlarni qo‘zg‘atish, rivojlantirish uchun matn muallifidan yuksak intellektual salohiyat talab etiladi, bu aksioma esa matn muallifning kognitiv doirasi keng, yuqori rivojlangan intellekt sohibi bo‘lganidan dalolat beradi.

“Mayxonani *qop-qorong‘i butxona* deb faraz qilsang, meni unda yaxshiliklarni qadrlamovchi qari majusiy deb bil. Ana shuncha *yuzi qoraliklar*, rasvoliklar, beboshliklar qilgan bo‘lsam-da, sendan aslo umid uzmayman, chunki karaming daryosidan noumid emasman”. Bu o‘rinda qora sifatining orttirma darajasidan foydalangan holda diniy tushunchalar bilan bog‘lagan, bu esa muallifning diniy qarashlarini oydinlashtiradi.

***Qaro af’i** ar yetsa oning qo‘li,*
*Bo‘lur kom gulchehraning **sunbuli.** (S.I.)*

Ushbu baytda ham “af’i – ilon”, qora ilon – yorning sunbuli, ya’ni sochi ma’nosini ifodalab kelgan.

O‘rulganda topib chu tob-u shikanj,
*Iki anbarin **af’i**, ul jism ganj. (S.I.)*

“*Zulflar o‘ralganda ularning buralib to‘lg‘anishi xuddi ikki anbarin **qora ilon**ni, jism esa xazinani eslatadi”*. Yuqorida keltirilgan matnlardagi misollarda qora rang asosan lirik qahramonning tushkun, salbiy holatlari bilan bog‘lab berilgan bo‘lsa, bu o‘rinda o‘zbek

mentalitetida ikki salbiy assotsiatsiyani keltirib chiqaruvchi tushunchalar “qora” va “ilon” so‘zlari birikib, chiroyli manzarani hosil qilganini ko‘rish mumkin.

*Ul **qaro kun** boshig‘a kelgan qori,*

***Ro‘zg‘ori ham qaro** tobe’lari. (L.T.)*

Bu baytda esa qora rang shoir kognitsiyasida salbiy assotsiatsiyalrni yuzaga keltirganini ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy qora, ya’ni qorong‘ulikni o‘ziga xos iboralar bilan ifodalaganini ham ko‘rishimiz mumkin:

Layli kun ichra kun tutti taskin,

*Hajr anduhidin **kun o‘ldi g‘amgin.** (L.M.)*

Ushbu baytda “kun o‘ldi g‘amgin” iborasi orqali yorug‘likning qorong‘ulikka o‘tgan holati tasvirlangan.

Qora rang Navoiy idrokida turli (50 ga yaqin) o‘ziga xos assotsiatsiya hamda kognitsiyalarni yuzaga keltirganini ko‘ramiz: *qora tuproq, qora yuz, qora yer, ko‘mirdek qoraymoq, qora dog‘, qora zindon, qora tun, qora kun, qora gard, qora bulut, qora musibat, qora tutun, qop-qora dud, qora tog‘, qora kun, qora niyatli, qora yoy, qora to‘zon, qora ko‘mir, qora qo‘ng‘iz, zulmat isyoni, shomdek qora, shom zulmati, qora siyoh, qop-qora chang-to‘zon, qora libos, qaro ro‘zg‘or, qora motam kigizi, Qora dengiz, qora qayg‘u, qora taqdir, yuzi qoralik, qop-qorong‘i butxona, qop-qora anbar hidli soch, qora zulf, qora ilon, qora tuproq, quyoshni qaro qilmoq, mamlakat motamga botib, qora kiyimga burkanmoq, aza libosi, oq uyning tashqarisi tun mushki bilan qop-qora tusga kirsa; o‘sha qorong‘ilik ustiga oppoq bulut taralib, jahon boshdan-oyoq oppoq qor bilan qoplangan bo‘lsa, qora bo‘rkining uchini qora qoshi,. qoramizni ko‘rgan on, qarg‘a xijolatdan yana ham qorayib ketibdi, butun dasht-u cho‘llarni qoraga bostirib va h.*

“Ilohi Navoiyga madad ber, *qora shomi*ni haqiqat chirog‘i bilan yorit! *Qorong‘i kecha*ning ofatlaridan, ofatlarigina emas, *zulmat*laridan ham asraginki, u Xizr yanglig‘ obi hayot chiqazsin, Iskandar janobiga hademay yetsin! *Qora shom* lirik qahramon ichki kechinmasini obrazli qilib ifodalashga xizmat qilgan bo‘lib, *qorong‘i kecha – qora shom*ga nisbatan, *ofat – qorong‘i shom*ga nisbatan va nihoyat, *zulmat – ofat*ga nisbatan gradatsiyani hosil qilgan. Bu orqali muallifning voqelikni tasavvur qilish chuqurligi, kengligi hamda idrok jarayonini ko‘rish mumkin, bunday gradatsiya retsipiyentning matnni yorqinroq idrok etishiga xizmat qiladi. Buni U. Naysserning “Perseptiv sikl” sxemasi orqali aks ettirish mumkin.



1-rasm. U. Naysserning “Perseptiv sikl” sxemasi.

Perseptiv sikl (ing. The perceptual cercle model) – kognitiv psixologiya maktabi vakili, amerikalik psixolog U. Naysserning modeli bo‘lib, idrokni uch tuzilma: **obyekt (mavjud ma’lumot) perseptiv sxema va tadqiqot**ning siklik o‘zaro ta’siri natijasi sifatida o‘rganadi. U.Naysserning perseptiv sxemalari subyektni biror-bir turdagi ma’lumotni qabul qilishga tayyorlaydi, shu tariqa, uni tadqiqot faolligiga boshqaradi. Bu faollik (masalan, ko‘z harakati), o‘z navbatida, muayyan obyektga olib keladi (mavjud ma’lumotga), ushbu yangi ma’lumot esa muvofiq sxemaga modifikatsiyalaydi. Modifikatsiyalangan sxema qo‘shimcha ma’lumotga olib keluvchi kelgusi tadqiqotga yo‘naltiradi. Ushbu sikl 1-rasmda ifodalangan.

Perseptiv sikl nafaqat vizual ma’lumot bilan, balki har qanday sensor modallik turi bilan ishlaydi. Insonlar real hayotda vizual, eshitish va taktil ma’lumotlarni bir-biridan ajralgan holda qabul qilmaydi. Shu sababli sxemalar umumlashma perseptiv xarakterga ega bo‘ladi, perseptiv siklning ish faoliyati esa bir nechta sensor tizimlarning bir vaqtdagi muvofiqlashgan faolligiga asoslanadi.

U.Naysserning fikricha, idrok – bu sxema va mavjud ma’lumotning o‘zaro ta’siri hamda bunday o‘zaro ta’sirning natijasidir.

Perseptiv sikl modeli asosida kompyuter metaforasi turadi, chunki ma’lumotning inson tomonidan qayta ishlanish jarayoni ma’lumotning kompyuter tomonidan qayta ishlanish jarayoni kabi ba’zi bir dasturlar bo‘yicha amalga oshadi.

Xulosa. Umumiy ma’noda sxema – bu kognitiv tuzilma bo‘lib, uning vazifasi atrofdagi mavjud ma’lumotni to‘plashdan iborat. Sxema – perseptiv siklning bir qismi bo‘lib, sensor kanallar orqali turli sensor modalliklarda ma’lumotni idrok qiladi, ushbu ma’lumot ta’sirida o‘zgaradi va kelgusi tadqiqot faolligiga yo‘naltiradi. Bundan tashqari, sxema kognitiv tuzilma bo‘lib, retsipiyentning “ongida” joylashadi. Shuningdek, sxema – nerv tizimining qismi hamdir. U miyada aniq markaz emas, biroq ba’zi fiziologik tuzilma va jarayonlardan tashkil topgan tizimni ham o‘zida aks ettiradi. U. Naysserning fikricha, inson tug‘ilgandanoq cheklangan perseptiv sxemalar to‘plamiga ega bo‘ladi. Biroq, sxemalarning aksar qismi perseptiv o‘rganish orqali tajriba to‘plash bilan shakllanadi. Sxemalar ma’lumot mavhumligining turli darajalarida ishlashi mumkin, chunki bir xil ma’lumot bitta darajada ishlashi, boshqasida ishlamasligi mumkin. Masalan, jilmayotgan insonni ko‘rib, ushbu inson tishining shakllari, uning lablari holati yoki kayfiyatining o‘zgarishi kabi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin. Demak, kayfiyatni idrok etish – bu bitta perseptiv sikl, tishlarning shakli idroki esa – boshqa perseptiv sikl hisoblanadi. Turli perseptiv sikllarda turli taxminlar to‘plami shakllanadi, turli ma’lumotlar ajratiladi va bu ma’lumotlar turli maqsadlarda qo‘llanadi, turl yo‘llar bilan xotirada qoladi.

Shuningdek, sxemalar “oldindan ko‘ra bilish” hamdir va bu muayyan shaxsning mavjud motivatsiyasi, harakatlar dasturi va tajribasiga bog‘liq bo‘ladi. Tajriba diqqatning taqsimlanishiga va natijada hosil bo‘lgan obrazga ham ta’sir qiladi.

Muayyan shaxs kundalik hayotda to‘qimachilik mahsuloti (masalan, shim) bilan to‘qnash kelganda ko‘pincha uning tashqi ko‘rinishga qarab baholaydi va o‘zi uchun “yoqdi/yoqmadi” tarzida belgilab qo‘yadi. Mazkur holatda ushbu doiradagi mutaxassis asosan mahsulot qanday matodan tikilgani, choklari tozaligi, tekisligi va chokning qaysi tipdaligiga e’tibor qaratadi.

Ranglar idrok rivojlantiruvchi eng mahsuldor usullardan biri hisoblanadi. Ko‘rish retseptorlari “miyaning bir qismi” hisoblanadi. Biroq matndagi rang ifodalovchi so‘zlar idroki “Perseptiv sikl”ning bir necha aylanma harakatini talab qiladi. Chunki rang ko‘rish retseptorlari orqali emas, balki so‘z va u anglatayotgan sema orqali idrok etiladi. Yuqorida keltirilgan matnda *yoqut, la’l* yoki *Xizr* bilan bo‘g‘liq so‘zlarning rangni ifodalashini idrok etish uchun “Perseptiv sikl”ning bir necha aylanma harakati amalga oshiriladi, zero bu so‘zlarni anglash shaxsning kognitiv bilimlariga asoslanadi.

Tabiatning badiiy tavsifini yaratayotib, muallif retsipiyentni o‘z qadriyatlari, estetik va axloqiy ustuvorliklari olami bilan tanishtirishga intiladi. Agar retsipiyentda matnni o‘qish jarayonida emotsional hamdardlik, mansublik, kuyunish hislari paydo bo‘lsa, ya’ni regulyativ, kognitiv va emotsional-irodaviy jihatlari ishtirok etsa, metodologik va badiiy vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan til vositalarini tanlash va birlashtirish yordamida amalga oshadigan muallifning kognitiv-emotiv maqsadlari va ustanovkasini amalga oshgan, deb hisoblash mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Бирюкова Т.Г. *Коммуникативные потребности старших школьников* // Проблемы русского и общего языкознания: Межвуз. сб. науч. тр., поев. Году русского языка. Вып. 6. - Елец: Елецкий гос. ун-т им. И.А. Бунина, 2008. - 161 с.

2. Галеева Н.Л. *Духовное пространство культуры и его перевыраженность в художественных текстах* // Язык и мышление: психологические и лингвистические аспекты: материалы всерос. науч. конф. М.; Пенза, 2001. - 157 с.

3. Киклевич А. *Эстетическая функция текста* // Киклевич А. *Притяжение языка. Т. 1. Семантика. Лингвистика текста. Коммуникативная лингвистика.* - Остин, 2007. – 301 с.

4. Куршакова Т.Д. *Лингвопрагматические и когнитивные аспекты репрезентации языковой личности в художественном описании природы.* Автореф. дисс.канд.фил.наук. Краснодар, 2011.

5. Навоий, Алишер. *Фарҳод ва Ширин:* (Насрий баён билан) / [Таҳрир ҳайъати А.Қаюмов ва бошқ.; Тузувчи А.Эркинов; Масъул муҳарр. В.Раҳмонов]: - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 592 б. – (Ўзбек адабиёти бўстони).

6. Навоий, Алишер. *Хамса: Садди Искандарий.* Насрий табдил / Алишер Навоий; И.Махсумов нусхаси асосида тўплаб, нашрга тайёрловчи М.Абдулхайр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2021. – 448 б.

7. Найссер У. *Познание и реальность.* – Москва: «Прогресс», 1981. - 230 с.

8. Houde O., Borst G., eds. In: *The Cambridge Handbook of Cognitive Development. Cambridge Handbooks in Psychology*. Cambridge University Press; 2022.

9. Рабғузий, Носируддин Бурхонуддин. *“Қисаси Рабғузий”.* К.2. // Масъул муҳаррир Н.А. Асилова; Оятлар, ҳадислар ва арабий шеърларни ҳозирги ўзбек адабий тилига Ю.Шокиров тарж. / - Т.: Ёзувчи, 1991. – 272 б.

10. Эркинов, А. *Навоий – пейзаж устаси* (Масъул муҳаррир. А.Қаюмов). Т.: “Фан”, 1988. Б. 64 б.

11. *Ўзбек тилининг изоҳли луғати.* /А.Мадвалиев таҳрири остида (2006-2008). III жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, - 688 б.